PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ARAB TILIDA FRAZEOLOGIZMLARNING O‘ZIGA HOS XUSUSIYATLARI

Tadjiyeva Umida

Oriental universiteti “Tillar-1” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD.

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20426103

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning lingvokulturologik va semantik jihatlari tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning xalqning milliy tafakkuri, madaniyati, urf-odatlari hamda dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqligi yoritiladi. Shuningdek, arab va boshqa tillardagi somatik frazeologizmlar misolida obrazlilik, milliy kolorit va tarjima muammolari ko‘rib chiqiladi. Maqolada frazeologizmlarning nutqdagi o‘rni, ularning ma’no ko‘chishi asosida yuzaga kelishi hamda tarjimada uchraydigan qiyinchiliklar misollar yordamida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: frazeologizmlar, mentalitet, somatik frazemika, semantik-diskursiv konnotatsiya.

Abstract: This article analyzes the distinctive features of phraseological units in the Arabic language, as well as their linguocultural and semantic aspects. It highlights the close connection between phraseological units and the national mentality, culture, traditions, and worldview of a people. In addition, the article examines imagery, national coloring, and translation issues through the example of somatic phraseological units in Arabic and other languages. The role of phraseological units in speech, their formation on the basis of semantic transfer, and the difficulties encountered in translation are explained with examples.

Keywords: phraseological units, mentality, somatic phraseology, semantic-discursive connotation.

Kirish.

Arab tilida frazeologik birliklar nutqning ajralmas qismi bo‘lib, ushbu mavzuda chuqur tadqiqotni talab qiladi. Arab xalqi hayotning har jabxasida turli frazeologik birliklarni qo‘llaydilar. Bu esa tarjima jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarni chog‘ishtirma tadqiqida, har ikki xalqning mentaliteti, urf-odatlari, dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, so‘z qo‘llarda o‘xshashlik hamda farqli jihatlarini ko‘rish mumkin. Arab tilidagi frazeologizmlar kam o‘rganilgan soha hisoblanadi, biroq ular har qanday tilning lug‘at boyligining eng muhim qismini tashkil etadi. Ular tarjima qilishda eng murakkab birliklar bo‘lib, shu sababli tarjima jarayonida alohida e’tibor talab etadi. Chunki frazeologizmning ma’nosini yetkazish bilan birga uning uslubiy xususiyatini ham yo‘qotmaslik zarur. Agar tarjima tilida mazmun jihatidan mos keladigan ifoda mavjud bo‘lmasa, tarjimon “yaqin ma’no”ni topishga majbur bo‘ladi[1]. Hozirgi kunda arab tili rivojlanishning yangi bosqichida bo‘lib, somiy tillari guruhida eng ommabop tillardan biri hisoblanadi. Arab tilida so‘zlashuvchilar soni har yili ortib bormoqda va taxminan 300 million kishini tashkil etadi. Shu sababli til kundan-kunga o‘zgarib, yangi terminlar va so‘zlar bilan boyib bormoqda.“Arab tili zamonaviy semit tillari orasida nisbatan yaxshi o‘rganilgan tillardan biri bo‘lishiga qaramay, frazeologizmlarni tadqiq etishga juda kam e’tibor qaratilgan. Tabiiyki, bugungi kunda tilni takomillashtirish va arab tili madaniyatini yuksaltirish

[1] Бекиров Р. Адъективные фразеологимы современногоарабского языка. Научный вестник Крыма, № 6 (29) 2020. - С.1.

maqsadida bunday lug‘atlar, nashrlar, maqolalar va dissertatsiyalar yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi”[2]. Shunday ekan, tilshunoslik ushbu sohasi chuqur tadqiqiotlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism.

Frazeologik birliklarni tadqiq etishda bir necha mavzuiy guruhlar saralab olinadi. Har bir mavzuiy guruhga tegishli bo‘lgan birliklar ko‘p sonni tashkil etadi. Quyida til bilan bog‘liq bir necha frazeologizmlar tahlil etiladi: Arablar tasavvurida “الالسنة الطويلة” (“tilni uzaytirmoq”) iborasi sergaplik, gapdonlik belgisi hisoblanadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ushbu frazeologizm yana “ko‘plab muammolar” degan ma’noni ham anglatadi:

الرئيسة قالت إن تلك الحادثة المؤسفة ليست سوى مشكلة أخرى في الالسنة الطويلة من المشاكل التي تواجهها اللجنة بصدد أوضاع عملها.

Rais ayol shunday dedi: bu achinarli hodisa qo‘mita ish sharoitlari bilan bog‘liq duch kelayotgan muammolarning uzun silsilasidagi yana bir muammodir[3]. Muloqot jarayonida ortiqcha va vaziyatga nomuvofiq ko‘p gapirish arab etnik tafakkurida “طؤل لسانه ” — ya’ni so‘zma-so‘z aytganda “tilini uzaytirish” deb qabul qilinadi.

Shu bilan birga, somatik frazemikaning xarakterli xususiyatlaridan biri — tillarda obrazli yo‘nalishi jihatidan bir-biriga juda yaqin bo‘lgan ko‘plab o‘xshash iboralarning mavjudligidir. Bu xususiyat somatik frazemalarni frazeologik birliklarning boshqa tematik guruhlaridan keskin ajratib turadi. Turli tillardagi somatik frazeologizmlarning obraz jihatidan o‘xshashligi, avvalo, tana a’zolari funksiyalarining universalligi, ularning aloqalari va munosabatlarining bir xilligi, shuningdek, somatik frazemika kelib chiqishiga ta’sir etuvchi imo-ishoralar, mimika, fiziologik sezgilar, hayvonlar odatlari hamda ijtimoiy ramziylik kabi ekstralingvistik omillarning umumiyligi bilan izohlanadi. Masalan, tilning nutq a’zosi sifatidagi axborotni tarqatish qobiliyati arab tilida quyidagi ekvivalent frazemalarda aks etadi: “tilga tushmoq”, “ دار الامر علي الألسنة” (so‘zma-so‘z: “nimadir tillarda aylanmoqda”) — “keng ommaga tarqalmoq” ma’nosini bildiradi. Har ikkala tilda ham til ortiqcha gapdonlik bilan bog‘lanadi: “tilini tishlamoq”, “أمسك فلان لسانه” (so‘zma-so‘z: “tilni tutib turmoq”) — “jim turmoq, ortiqcha gapirmaslik” ma’nosida qo‘llanadi. Rozilik belgisi sifatida arablar ham bosh irg‘aydilar: “bosh chayqamoq”, “هز برأسه” (so‘zma-so‘z: “boshni qimirlatmoq”)[4].

Kuchli qo‘rquv va dahshat hissiga nisbatan tananing bir xil reaksiyasi tadqiq qilinayotgan tillarda quyidagicha ifodalanadi: “sochi tikka bo‘lmoq”, “وقف شعر رأسه” (so‘zma-so‘z: “kimningdir boshidagi sochlari tik turdi”). Qon esa kuchli hissiyotlarning ramzi sifatida ishlatiladi: “qoni muzlamoq”, “تجمد الدم في عروقه” (so‘zma-so‘z: “kimningdir tomirlaridagi qon muzlaydi”) — “kimdir kuchli qo‘rquv yoki dahshatni his qilmoqda” degan ma’noni anglatadi.

Shunga qaramay, somatik frazemika etnomadaniy hodisa hisoblanadi. Somatik frazemalarning etnolingvistik o‘ziga xosligi semantik-diskursiv konnotatsiyaning obrazli qatlamlarida yashiringan bo‘ladi.Masalan, arab tilidagi “دمه بارد” (so‘zma-so‘z: “kimningdir qoni sovuq”) — “kimdir hayajonlanmaydi, umuman tashvishlanmaydi” degan ma’nodagi frazema qon his-tuyg‘ular tashuvchisi ekanligi haqidagi tasavvurga asoslanadi. Qonning sifati inson temperamentini belgilaydi: inson “issiq qonli” bo‘lishi ham, “sovuqqon” bo‘lishi ham mumkin. O‘zbek tilida ham aynan shu

[2] Бекиров Р.А. Лексико-семантические особенности глагольных фразеологизмов современного арабского языка. Учебное пособие: Часть 1. – 112 с., 2016. - С.2.

[3] Тиллоева, С. М. Отбор соматических фразеологизмов арабского языка и комплекс упражнений, направленных на обучение переводу студентов языкового вуза / С. М. Тиллоева, Н. Н. Сергеева. – Текст : непосредственный // Педагогическое образование в России. – 2025. – № 1. – С. 168–175.

[4] Саид Ахмед Мохамед. Фразеологизмы-соматизмы в русском и арабском языках (лингвокультурологический анализ). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Каир: 2017. – С.15.

mavzuda turli hil frazeologizmlar mavjud: “qon yutmoq” kim? ich-ichidan kuchli darajada ruhan azoblanmoq. O‘zimdan o‘tadi, o‘zim bilaman. «Aldadimi?» – deyman, ishonmayman. «Bosmachilar o‘ldirdimi?» – deyman, qon yutaman. Sochlarimni yulib yig‘lagim keladi (Oydin). Sadag‘ang bo‘lay, komandir. Olti-yetti yildan beri qovusholmay qon yutib kelayotganimizni nainki muttaham mingboshi bilan go‘rso‘xta qozi bilmaydi? (M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha). “Qoni qaynamoq” kim? yoki nima? kimning? achchiqlanmoq, qizishmoq. Sinonimi: achchig‘(i) keldi kimning? nimaga? [yoki nimadan?]; achchig‘(i)ni keltirmoq kim? yoki nima? kimning? g‘azabga kelmoq kim? nimadan? g‘azabga keltirmoq nima? kimni? achchig‘(i) qistadi kimning? nimadan? Sherbek o‘zi ustidan … yozilgan xatni eslab, qoni qaynadi (S.Anorboyev, Oqsoy). Mudir gapni ko‘paytirib, xaridorning qonini qaynatmaslik uchun oqsoqlanib ichkari kirib ketdi. (I.Rahim, Ixlos). Maxsumning keyingi nasihatomuz gapi qonini qaynatib yubordi. «Tinchingizni buzmaydi, qo‘rqmang. Muridingiz-ku?» – dedi o‘zini zo‘rg‘a tutib. (S.Anorboyev, Oqsoy)[5].

Leksik somatizmlar asosida shakllangan frazeologizmlar real dunyodagi turli obyekt va hodisalarni modus-baholovchi tarzda nomlashning avtoxton vositasi hisoblanadi. Masalan, rus va arab tillariga xos (o‘zlashmagan) somatik frazeologik birliklar: “sochi tikka bo‘lmoq” — “dahshatni his qilmoq”, “tirnog‘ini ko‘rsatmoq” — “qarshilik ko‘rsatishga tayyorlanmoq”; “qo‘lini yuragiga qo‘yib” — “samimiy, ochiqchasiga”; “فاضت عينه” (so‘zma-so‘z: “kimningdir ko‘zlari toshib ketmoqda”) — “ko‘z yosh to‘kmoq, qattiq yig‘lamoq”, “ضحك بملء فيه” (so‘zma-so‘z: “og‘zi to‘lib kulmoq”) — “juda qattiq kulmoq”[6].

Tarjima nuqtayi nazaridan frazeologik birliklar alohida qiyinchilik tug‘diradi. Chunki “tilning idiomatik qatlamida, ya’ni ta’rifga ko‘ra milliy o‘ziga xos bo‘lgan qismida qadriyatlar tizimi, ijtimoiy axloq, dunyoga, insonlarga va boshqa xalqlarga bo‘lgan munosabat saqlanadi. Frazeologizmlar, maqollar va matallar muayyan madaniyat bilan birlashgan xalqning turmush tarzini, geografik joylashuvini, tarixini hamda an’analarini eng yaqqol aks ettiradi” [7].

Aynan shu “himoya mexanizmlari” tarjimada katta murakkablik tug‘diradi: birinchidan, ularning ma’nosini har doim ham ochib bo‘lmaydi, chunki ular kuchli milliy koloritga ega bo‘lib, dunyo manzarasi va uning tarkibiy qismlari bilan chambarchas bog‘liq; ikkinchidan esa, ular nutqda juda ko‘p qo‘llanadi. Bizningcha, frazeologik chatishmalar leksikaning tarjimaga eng qiyin bo‘ysunadigan qatlamidir, chunki ularning ma’nosi tarkibidagi so‘zlar ma’nosidan kelib chiqmaydi. Bu esa shuni anglatadiki, agar tarjimon ushbu frazeologik iboralarni oldindan bilmasa, ularni tarjima qila olmaydi[8].

Tarjima qilish qiyin bo‘lgan iboralarga misol sifatida arab tilidagi keng qo‘llanadigan “حنين بخفي رجع” maqolini keltirish mumkin. Bu ibora “quruq qo‘l bilan qaytmoq” yoki “umidi puch bo‘lib qaytmoq” degan ma’noni anglatadi (so‘zma-so‘z: “Hunaynning etiklari bilan qaytdi”). U maqsadga

[5] Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati.– T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet. – B.413.

[6] Саид Ахмед Мохамед. Фразеологизмы-соматизмы в русском и арабском языках (лингвокультурологический анализ). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Каир: 2017. – С.15.

[7] Тер-Минасова С.Г. Языки межкультурная коммуникация: учеб. пособие. – М.: Слово/Slovo, 2000. – С.79.

[8] Сейтметова Ж.Р., Давыдова И.В. Фразеологизмы в арабском политическом дискурсе и особенности их перевода. KazNu Bulletin. Oriental series. №3 (69). 2014. – С.89.

erishishdagi muvaffaqiyatsizlikni ifodalash uchun ishlatiladi. Agar tarjimon ushbu iboraning ma'nosini va u qaysi tarixiy voqea bilan bog'liqligini bilmasa, unda bu ibora ishlatilgan matn qismini to'g'ri tarjima qila olmaydi. Mazkur maqolning asosida Hunayn ismli iroqlik etikdo'z haqidagi hikoya yotadi. U bir badaviy bilan oyoq kiyimining narxi ustida uzoq savdolashadi. Hunayn ko'p vaqtini savdolashishga sarflab, ko'plab mijozlarini boy beradi. Oxir-oqibat badaviy etik sotib olish fikridan qaytib, tuyasiga minib ketadi.

Shunda Hunayn undan o'ch olish uchun hiyla ishlatishga qaror qiladi. U do'konini yopib, qisqa yo'ldan yurib badaviyni quvib o'tadi va badaviy yuradigan yo'lga sotib olinmagan etik juftining bittasini tashlab qo'yadi. Badaviy etikni ko'rib: "Bu Hunaynning etigiga o'xshaydi", deydi va yo'lida davom etadi. Birozdan keyin u ikkinchi etikni ham ko'radi va uni olib, birinchi etikni olish uchun ortga qaytishga qaror qiladi. U tuyasidan tushib, etiklarni olishga ketadi. Shu paytda Hunayn uning tuyasini o'g'irlab ketadi.Badaviy qaytib kelganida tuyasini topa olmaydi va unga Hunaynning etiklari bilangina uyiga qaytishdan boshqa chora qolmaydi[9].

Xulosa

Arab tilidagi frazeologizmlar xalqning milliy tafakkuri, madaniyati, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Ayniqsa, somatik frazeologizmlar insonning hissiy holati, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy munosabatlarini obrazli tarzda ifodalashi bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida arab va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar o'rtasida ma'lum o'xshashliklar mavjudligi, bu esa inson fiziologiyasi va umumiy tafakkur universalligi bilan bog'liqligi aniqlandi. Shu bilan birga, har bir xalqning madaniyati va mentaliteti frazeologizmlarning semantik-diskursiv konnotatsiyasida o'z aksini topishi kuzatildi.

Maqolada tahlil qilingan frazeologik birliklar arab tilida obrazlilikning yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, "til", "qon", "bosh", "ko'z" kabi somatik komponentlar asosida shakllangan iboralar insonning hissiy va ruhiy holatini ifodalashda faol qo'llanadi. Bunday birliklar nafaqat kommunikativ vazifani bajaradi, balki xalqning lingvokulturologik xususiyatlarini ham namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Бекиров Р.А. Лексико-семантические особенности глагольных фразеологизмов современного арабского языка. Учебное пособие: Часть 1. – 112 с.
2. Бекиров Р. Адъективные фразеологимы современногоиарабского языка. Научный вестник Крыма, № 6 (29) 2020.
3. Саид Ахмед Мохамед. Фразеологизмы-соматизмы в русском и арабском языках (лингвокультурологический анализ). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Каир: 2017. – С.15.
4. Сейтметова Ж.Р., Давыдова И.В. Фразеологизмы в арабском политическом дискурсе и особенности их перевода. KazNu Bulletin. Oriental series. №3 (69). 2014. – С.89.
5. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati.– T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
6. Тер-Минасова С.Г. Языки межкультурная коммуникация: учеб. пособие. – М.: Слово/Slovo, 2000. – С.79.

[9] Keltirilgan manba'.– C.91.